

## ABDURAUUF FITRATNING “ME’ROJ” HIKOYASIDA XARAKTER YARATISHNING USULLARI

**Gulnoza Raxmonova,**

*Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat ijodining o‘ziga xos tomonlari, badiiy mahorati, “Me’roj” hikoyasida obrazlarning an’anaviy va zamonaviy yaratilish talqinlari, tush motivi hamda kollektiv ongosti arxivtiplarning badiiy talqini haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** me’roj, tush motivi, xarakter, obraz, yung nazariyasi, arxivtip.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются специфические аспекты творчества и художественное мастерство Абдурауфа Фитрата. Анализируются традиционные и современные интерпретации создания образов в рассказе «Меърож», мотив сна, а также художественная трактовка архетипов коллективного бессознательного.

**Ключевые слова:** меърож (мирадж), мотив сна, характер, образ, теория Юнга, архетип.

**Abstract.** This article explores the unique aspects of Abdurauf Fitrat’s creative work and his artistic craftsmanship. Specifically, it analyzes the traditional and modern interpretations of character creation in the short story “Me’roj” (The Ascension). The study examines the motif of the dream and the artistic representation of collective unconscious archetypes within the narrative.

**Keywords:** Me’roj, dream motif, character, image, Jungian theory, archetype.

**Kirish.** “XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida professor Abdurauf Fitratning alohida o‘rni bor. U nafaqat jadid adabiyotining yirik vakili, balki mumtoz adabiyotimizni, uning nazariy asoslarini — aruz, qofiya va balog‘at ilmlarini tizimli o‘rgangan birinchi zamonaviy olimimizdir”. [2] Jadid adabiyoti rivojida Abdurauf Fitratning xarakter yaratish mahorati badiiy yetukligi va satirik o‘tkirligi bilan namoyon bo‘ladi. Xususan, Fitrat qalamiga mansub “Me’roj” hikoyasida an’anaviy xarakter yaratish usullaridan tashqari, arxivtiplar va tush motivi asosida badiiy asar yaratish mahorati ham yuzaga chiqqan.

**Adabiyotlar tahlili.** Abdurauf Fitrat ijodi va “Me’roj” hikoyasi o‘zbek jadid adabiyotida keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. H. Boltaboyevning tadqiqotlarida Fitrat ijodining badiiy-poetik xususiyatlari, uning jadidchilik g‘oyalari bilan bog‘liqligi va asarlaridagi ramziy ifodalar chuqur tahlil qilingan. Fitratning “Me’roj” hikoyasi diniy-mifologik syujetning psixologik va ijtimoiy talqini sifatida baholanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Abdurauf Fitratning “Me’roj” hikoyasida xarakter yaratish usullarini tahlil qilish uchun kompleks filologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik bazasini adabiy tahlil, matn tahlili (close reading), qiyosiy-tarixiy hamda psixologik (Yung nazariyasi asosidagi) yondashuvlar tashkil etadi.

Avvalo, asar matni bevosita tahlil qilinib, undagi obrazlar, ramziy detallar va kompozitsion tuzilma aniqlandi. Keyinchalik Fitrat ijodining badiiy xususiyatlari boshqa jadid adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o‘rganildi. Shu bilan birga, K.G. Yungning kollektiv ongsizlik va arxetiplar nazariyasi asosida qahramonning ichki kechinmalari va tush motivi ilmiy jihatdan talqin qilindi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy va interpretatsion metodlar ham qo'llanilib, matndagi ramziy obrazlar va xarakter shakllanishi bosqichma-bosqich izohlandi. Ushbu yondashuvlar "Me'roj" hikoyasidagi xarakter yaratish usullarini ilmiy asosda ochib berishga imkon yaratdi.

**Tahlillar va natijalar.** "Me'roj" hikoyasi Fitrat diniy-falsafiy qarashlarining yaqqol namunasi. Asarning kompozitsion tuzilishi ikki qismli bo'lib, birinchi qismda real hayot qahramonning umumiy hammomga borishi hamda u yerda xotib va xizmatchilar bilan bo'lgan suhbatlari, ikkinchi qismda esa tush ko'rish orqali yuzaga kelgan fantastik olam aks etgan. Bu ikki qism asar qahramoni xarakterini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar ekspozitsiyasi hammom tasviri bilan boshlanadi. "Xodimchining: "Terlaganingizgacha mana shunda o'tira qoling", deb ko'rsatgan tor sufachada o'tira qoldim. Tepadagi teshikning xira qarshisidan uzayib tushgan kirlik bir ziyo hammomning o'rta yerini yarim yorutqan edi. Atrofda nimalar borligini anglamoq uchun bo'lsa kerak, boshimni ko'tarib qaradim, burchaklarda uzanib yotqan, o'tirgan, tek turg'an odamlar tutun orqasidagi haykallar kabi xayol-mayol ko'rinmoqda edi. Yerda yig'ilib yotqan sovunlik suvlarning shalp-shulp etgan tovushlari diqqatimni o'ziga tortdi...".[3] Bu o'rinda muallif muhit tasviri orqali qahramonning ruhiy holatini ochib berish va o'quvchida davr haqida aniq tasavvur uyg'otishni maqsad qilgan. Hikoyada aynan hammom tasvirining ekspozitsiya qilib olinishi bejiz emas. Qahramon yashagan davr muhiti va odamlari ham xuddi hammomdagidek: yotgan, o'tirgan va harakatsiz "joni bor haykallar"ni eslatadi. Nurning ifloslanib tushishi, atrofni ilg'ab bo'lmasligi va faqat o'rta qismninggina yorug'ligi bizningcha ramziy ma'no kasb etadi. Zero, inson poklanish uchun hammomga boradi, biroq maskanning o'zi nopok bo'lsa, u yerdan ikki karra ma'naviy kirlanib chiqmaydimi?

Fitrat hammom timsoli orqali jaholat va turg'unlik botqog'iga botgan jamiyatni, xira yorug'lik vositasida esa qahramon ongidagi chalkashlik va ijtimoiy ziddiyatlarni aks ettiradi. Hammomning iflosligi — bu shunchaki tashqi ko'rinish emas, balki o'sha davr dunyoqarashining, din niqobi ostidagi xurofotlarning timsolidir. Nurning g'uborlanib yoritishi esa millat ongiga kirib kelayotgan yangi fikrlarning eskicha qarashlar va qotib qolgan aqidalar filtri orqali o'tib, o'zining asl mohiyatini yo'qotayotganiga dalolatdir. Qahramonning mana shu "tor" va "nopok" olamdan qochish istagi uni tush ko'rishga, ya'ni botiniy poklanish va ruhiy parvoz — "Me'roj" sari yo'llaydi. Tush — bu qahramonning real hayotdagi xurofotlardan qutulish va o'zligini izlashga bo'lgan anglanmagan intilishidir. Aynan mana shu nuqtada ijodkor biz izlagan savolga javob beradi, ya'ni qahramonni **katarsis** — **ruhiy poklanish** tomon yetaklaydi.

Shveytsariyalik psixolog va faylasuf Karl Gustav Yung (1875–1961) psixologiyaga "**kollektiv ongosti**" tushunchasini olib kirgan. Yungning fikriga ko'ra, inson ongi faqat shaxsiy tajribalardan iborat emas, balki unda butun bashariyatga xos bo'lgan, irsiy yo'l

bilan o‘tib kelayotgan qadimiy obrazlar va tushunchalar mavjud. Muallif bularni “**arxivtiplar**” deb ataydi.

**Arxivtiplar** — bu bashariyatning ko‘p asrlik tajribalari mahsuli sifatida shakllangan, tushlar, afsonalar, diniy obraz va marosimlar hamda badiiy asarlarda qayta-qayta qalamga olinadigan umumiy andozalardir. Yung qarashlarida tush ko‘rish holati alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, tush — bu inson ongostining o‘z-o‘zini qayta tartibga solish mexanizmi bo‘lib, unda shaxsning reallikda bostirilgan his-tuyg‘ulari arxivtiplar (masalan, *Soya*, *Persona* kabi) orqali ramziy holda shakllanadi.

Qahramonning hammomga kelishi va u yerdagi xizmatchilar bilan suhbatdagi holati **Persona** (ijtimoiy niqob) arxivtipiga misol bo‘la oladi. *Persona* — bu insonning ijtimoiy muhitga moslashish mexanizmi bo‘lib, o‘zgalar bilan muloqotda foydalanadigan "niqobi"dir. Hikoyada ushbu arxivtipning eng yaqqol namunasi — hammomga kirib kelayotgan **Xatib** obrazidir. Ijodkor uni quyidagicha ta’riflaydi: “... qaradim, xodimchilarning biri uzun soqolli, novchagina bir odamni yetaklab keldi. Hammomdagi odamlarning qaysi guruhdan ekanlarini anglash qiyin. Shunday bo‘lsa ham oppoq soqolning uzunligi menga bir narsalarni anglatmoqchi kabi edi. Bu “odam”ning har holda yo shayx, yo mulla ekaniga qaror bergan edim. Bu vaqtgacha yonimdagi keng sufaga yaqinlashgan xodimchi: — Mana taqsir, terlaganingizgacha shunda o‘tira qoling! — dedi. — Uka, ko‘p o‘tira olmayman, “juma” vaqti yaqin, musulmonlar kutmasinlar. — Unday bo‘lsa hozir kelib xodim qilaman, taqsir. Shu qisqagina musohaba bu kishining ‘xatib’ ekanlarini bildirgan edi.” [4] Yozuvchi qahramon xarakterini ochishda, avvalo, detallarga tayanadi: oppoq va uzun soqol qo‘yish muayyan tabaqa vakillariga xos bo‘lib, ularning qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ifodalaydi.

Fitrat xatib xarakterini ochib berishda detallar simbolikasidan mahorat bilan foydalanadi, bu esa uning naqadar buyuk iste’dod sohibi ekanligidan dalolat beradi. Lungi, aslini olganda, hammomda tana a’zolarini yopish uchun ishlatiladigan oddiy matodir. Lekin xodimchining lungini "joynamoz kabi" solishi, xatibning esa uning ustiga xuddi muqaddas poyandozdek chiqib yotishi — qahramon hayotining butunlay soxta diniy rasm-rusumlar bilan to‘lganligini ko‘rsatadi. U hatto dam olish lahzalarida ham o‘zini muqaddaslik maqomida ko‘radi, atrofdagilarga past nazar bilan qarab, o‘ziga xizmat qilinishini tabiiy qabul qiladi. Bu yerda lungi va joynamoz o‘rtasidagi farqning yo‘qolishi — xatib uchun din shunchaki shaxsiy qulaylik va o‘zini ulug‘lash vositasiga aylanganidan dalolatdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Fitratning ‘Me’roj’ hikoyasi shunchaki sayohat emas, balki insonning botiniy Meni va ijtimoiy Personasi o‘rtasidagi ziddiyatni fosh etuvchi psixologik hikoya hisoblanadi. Uyg‘onish lahzasi qahramon uchun nafaqat tushning tugashi, balki jamiyatdagi mavjud illatlarni yangicha, yuksalgan nigoh bilan ko‘rishning boshlanishidir.

Abdurauf Fitratning “Me’roj” hikoyasi o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy diniy-mifologik syujetni chuqur psixologik va ijtimoiy tahlilga ko‘chirgan o‘ziga xos asardir. K.G. Yungning **analitik psixologiyasi** prizmasidan qaraganda, qahramonning hammomdan boshlanib, Arshga qadar davom etgan sayohati — shaxsning **Individuatsiya** (o‘zlikni anglash) jarayonining badiiy in’ikosidir. Uyg‘onish lahzasi esa individuatsiya jarayonining eng muhim bosqichidir: qahramon endi avvalgi “haykal” emas, balki ruhiy tajriba to‘plagan, jamiyat kirliklarini yangicha nigoh bilan ko‘ra oladigan shakllangan shaxs sifatida uyg‘onadi. Shu tariqa, Fitrat “Me’roj” hikoyasida mifologik ramzlar yordamida zamonasining ma’naviy inqirozini va shaxs erkinligi g‘oyasini yuksak mahorat bilan ifoda etgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Учинчи Ренессанс нимани англатади? // Янги Ўзбекистон. – 2021. – 17 август.
2. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 52.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild: Hikoyalar, dramalar, lirik she’rlar / Nashrga tayyorlovchi: H. Boltaboyev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 280 b.
4. Yung K. G. Arxetip va simvol / Rus tilidan tarjimon: A. Shakarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 320 b.
5. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: O‘zMU, 2007. – 256 b.
6. Jung, K.G. (1948). Ertaklardagi ruh fenomenologiyasi. Arxetiplar va kollektiv ongsizlik, 9 (1-qism), 207-254
7. Boltaboyeva H.H. Mehmet Akif Erso‘y va Fitrat asarlarida ma’rifatchilik g‘oyalarining badiiy talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023

NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934